

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov	
Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
<hr/>	
PEDAGOGIKA	
B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
Ким Владимир	
Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов	15
A.H.Amonov	
Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста.	20
N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
O.Q.Xasanova	
Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati	28
M.E.Abdullayev	
O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	34
B.Sh.Turg'unboyev	
Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar	37
X.A.Kadirova	
Tibbiyot oliygochlarda tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov	
Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori	49
D.K.Karimov	
Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
K.F.Nazarova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiylarini rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
J.Dj.Sultanov	
Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
X.X.Xasanbayev	
Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
O'R.Maxmudov	
O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
I.Y.Masharipov	
Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili	71
F.O.Qo'ysinova	
Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi	75
R.X.Ibragimov	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish	78
A.Tuychiyev	
Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

**MAFKURAVIY VA MA'NAVII TAHIDIDLAR BILAN BOG'LIQ JARAYONLARDA
RADIKALIZM MUAMMOSI**

**ПРОБЛЕМА РАДИКАЛИЗМА В ПРОЦЕССАХ, СВЯЗАННЫХ С ИДЕОЛОГИЧЕСКИМИ
И ДУХОВНЫМИ УГРОЗАМИ**

**THE PROBLEM OF RADICALISM IN PROCESSES RELATED TO IDEOLOGICAL AND
SPIRITUAL THREATS**

Qo'y sinova Fazilat Oripovna¹

¹Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi Markaziy apparat xodimi

Annotatsiya

Maqolada globallashuv va mafkuraviy jarayonlarda radikallashuv muammosi, uning ichki semantik mazmuni taxlil yetilgan. Globallashuvda mafkuraning o'ni va uning xarakterli xususiyatlari ochib berilgan. Mafkura, terrorchilik faoliyati quriladigan poydevor bo'lib, uning maqsadli va qadriyat-semantik tomonlarini aks ettiradi. Shuningdek, maqolada yekstremizm va radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируется проблема глобализации и радикализации идеологических процессов, ее внутреннее смысловое содержание. Раскрыта роль идеологии в глобализации и ее характерные черты. Идеология является фундаментом, на котором строится террористическая деятельность, и отражает ее целевую и ценностно-смысловую стороны. В статье также анализируется проблема предотвращения и борьбы с экстремизмом и радикализмом.

Abstract

The article will talk about the problem of radicalization in globalization and ideological processes, its internal semantic content. The place of ideology and its characteristic features are revealed in globalization. Ideology is the foundation on which terrorist activities are built, reflecting its purposeful and value-semantic sides.

Kalit so'zlar: globalashuv, mafkura, diniy yekstremizm, terrorizm, radikallashuv, deradikalizatsiya, diniy reabilitatsiya, islomiy tarbiya, destruktiv g'oyalari.

Ключевые слова: глобализация, идеология, религиозный экстремизм, терроризм, радикализация, дерадикализация, религиозная реабилитация, исламское воспитание, деструктивные идеи.

Key words: globalization, ideology, religious yextremism, terrorism, radicalization, deradicalization, religious rehabilitation, Islamic yeducation, destructive ideas.

KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda dunyo hamjamiyati murakkab bosqichdan o'tib, bunda eski dunyo tartibotining buzilishi va yangisining vujudga kelishi nihoyatda keskin holatda kechmoqda. Xususan, bir qutblı dunyo tartibotidan ko'p qutblı dunyo tartibotiga o'tish davri bunga yaqqol misol bo'ladi. Ushbu jarayonlar dunyoning bir nechta nuqtalarida urush va keskin ziddiyatlar bilan belgilanib kelmoqda. XXI asr boshlariga kelib radikalizmga, zo'ravonlikka, ekstremizmga qarshi kurash muammosi nafaqat bir davlatning balki, butun dunyo mamlakatlari uchun o'ta dolzarb masalalardan, muammolardan biriga aylandi. Ichki va tashqi omillar sababli ayrim mamlakatlarda islom dinining siyosiyashuvi hamda radikallashuvi kuzatildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz radikalizmining asosiy g'oyalari utilitarizm asoschilar hisoblangan I.Bentam va Dj.S.Mill singari nazariyotchilar ta'siri ostida shakllangan. Rossiyalik olim S.Samoylov tadqiqotida radikalizm g'oya yemas balki xulq-atvor modeli deya keltirilgan. olim Y.Yaxyoyev radikalizmni ilg'or inqilobiy rivojlanishni nazarda tutuvchi konstruktiv, buzg'unchi konservativizmni ilgari suruvchi destruktivn yo'nalishga ajratadi. Olim har ikkala yo'nalish ham mavjud hokimiyat tizimini va jamiyat asoslarini yo'q qilishni nazarda tutishini ta'kidlaydi.

Globalashuv va mafkuraviy jarayonlarda radikallashuv muammosi, uning ichki semantik mazmuni tahlil qilindi. Globalashuvda mafkuraning o'ni va uning xarakterli xususiyatlari ochib berildi. Globalashuv va mafkuraviy jarayonlarda radikalizm muammosi yaqindan o'rganildi va ma'lumotlar bazasi yig'ildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va tahliliy qiyoslash, tizimli yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

Dunyoda sodir bo'layotgan vogeliklarning turli mamlakatlardagi ko'rinishlari, xalqaro jarayonlarga va davlatlar tashqi siyosatiga ta'siri kuchaymoqda[1]. Islomning xalqaro hayotdagi va jahon zamonaviy siyosatidagi o'rni tobora murakkablashib bormoqda. Zo'ravon ekstremizm va radikalizmning oldini olish, unga qarshi kurashish nafaqat alohida davlatlarning, balki jahon hamjamiyatining eng asosiy va dolzarb vazifasi ekanligini ko'rsatdi.

Ilm e'tiqodning hayotiylik mazmunini, ishonch esa uning hayotiylik kuchini tashkil qiladi. Ilmni biz, tafakkur xususiyatlardan kelib chiqib, ratsional (aqlga mantiqqa xos) va irratsional (aqlga, mantiqqa unchalik mos kelmaydigan) ilmlarga ajratamiz[2].

Ratsional ilmnинг yuksakroq darajasi kundalik hayotiy tajriba yordamida emas, balki o'qish, turli fanlar asoslarini o'rganish, o'z sohasiga oid fan yutuqlaridan xabardor bo'lish orqali shakllanadi. Irratsional ilm aniq dalillarni noaniq, taxminiy dalillar bilan aralashdirib yuborish, ba'zan g'ayritabiyy, xurofot va bid'at, mistika, botil qarashlar va biryoqlama murosasiz hissiyotga berilish tufayli paydo bo'ladi. E'tiqodning ilg'orligi yoki qoloqligi, insonparvarligi yoki xudbinligi, liberalligi yoki totalitarligi va boshqa ko'plab xususiyatlari uning mazmunini tashkil etuvchi ilmga bog'liq[3]. Ikkilanish va shubha bilan qaralgan ilm e'tiqod emas. Ilgari inson qattiq ishongan tushunchalarga, g'oyalarga nisbatan hayotiy tajribasi, bilimi ortadi, ilm-fan taraqqiyoti natijasida shubha tug'ilsa, ular e'tiqod maqomini yo'qotadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

E'tiqod dunyoqarashning, butun ma'nnaviyat tizimining o'zagi o'laroq, insonning borliqqa, hayotga munosabatini, xulq-atvori, say-harakati, faolligini belgilaydi[4]. Faoliik uchun, ayniqsa, ijodkorlik uchun faqat ishonchga asoslangan ilm ba'zan kamlik qiladi. Ijodkorlik va samarali faoliik ishonchning ixlos va ishq bilan boyitilishini taqozo etadi.

Ushbu masalalar tahlilida quyidagi vogeliklar asoslanganligi aniqlandi. Musulmon jamoalarining transformatsiyasi XIX asrning oxiridan boshlab urbanizatsiya jarayoni, ommaviy ta'limni joriy etish, davlatlararo va shaxslararo aloqalarni jadallahishi va kengayishi, jamiyat institutlarining va ommaviy siyosiy mobilizatsiyaning yangi turlari, iqtisodiyotni tubdan qayta tashkil etish va zamonaviylikning boshqa muammolari (moderniti) mustamlakachilik bilan bir vaqtida an'anaviy musulmon jamiyatlarini shakllantirishga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi[5]. Musulmon olamingin orqada ekanligi sabablari va bu kechikishdan qutulish usullarini topish masalasi izlanishlar olib borildi. Islom dunyosi muammolariga taklif qilingan yechimlarga ko'ra musulmonlar to'rt qismga bo'lingan (va hali ham bo'linadi):

1. Dunyoviyilar. Bu turdagи musulmonlar hamma narsada g'arbg'a taqlid qilish kerak deb hisoblaydigan aholi qismi. Ular modernizatsiyani vesternizatsiya deb tushunishadi. XX asrning boshida va o'rtalarida yelita o'rtasida juda ta'sirli bo'lgan bu mafkura (Turkiyada Otaturk, Yeronda Rezo Raxlaviy, Yaqin Sharqdagi Baas rejimlari, Markaziy Osiyodagi sobiq Sovet Ittifoqi elitasi va boshqalar) biroz vaqt ichida o'z jozibasini yo'qotsada, ammo hozirgi kungacha muhim va ta'sirli mafkuraviy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

2. Diniy modernistlar. Modernizatsiyani musulmon jamiyatining an'anasi, uning noyob ijtimoiy xotirasi, madaniy merosi, diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lishi va vaqt talablariga muvofiq holda ushbu meros, an'analar va ye'tiqodlar, islomning asosiy qoidalariiga ziyon yetkizmaydigan tarzda, tanqidiy ko'rib chiqilishi kerak, deb hisoblashadi.

3. An'analar tarafdarları / konservatorlar. Ular din sohasida hech qanday tanqidiy fikrga o'rın yo'q, chunki islomdagi diniy va huquqiy maktablarining asoschilari tomonidan hamma narsa ko'zda tutilgan, deb hisoblaydilar. Modernizatsiya texnologik yoki iqtisodiy o'zgarish tushunchalari orqali "tor" ma'noda tushuniladi.

4. Fundamentalistlar / radikallar. Ular moderniti tushunchasini g'arb ustuvorligining bir shakli va musulmon dunyosining barcha muammolarini hal qilishning yagona yo'li "toza" islomga qaytish, deb ishonadigan "Al-Qoida", ISHiD, "O'zbekiston Islomiy Harakati" kabi marginal guruhlardir.

Vaqt shuni ko'rsatdiki, G'arbda va Sharqda ham, islomning musulmon mamlakatlari va uning katta sonli aholisiga ta'sirini to'g'ri baholay olmagani, uning salohiyati, mobil va integratsiyalashuvchi imkoniyatlariga past baho berganini isbotladi. 80-yillarda kelib, jurnalistlar, siyosatchilar va olimlarning yondoshuvlari butunlay o'zgardi. Bu vaqtida islom dini qayta tiklanish bosqichini boshidan o'tkazayotgani va barcha musulmon davlatlarida tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlaganligi va uning xalqaro maydonda, ustunlikka ta'siri ommaviy ahamiyatga aylanib bo'lgandi. Ko'plab nashrlarda bu kabi jarayon 1978-1979-yillarda Yerondagi Islom revolyusiyasi g'alabasining ta'siri, kabi noto'g'ri farazlar bilan izohlandi[5; 6;].

G'arbda "fundamental" yoki "integrik" harakatlar deb nom olgan butun musulmon olami va undan tashqari hududlarda vujudga kelgan harakatlar keskin faollahshdi. Bunga, musulmon davlatlaridagi, hozirgi paytlarda Livandagi Hizbulloh tashkiloti, Jazoirdagi "Islom qutqaruv fronti",

PEDAGOGIKA

Misrdagi "Al-Jamoat al-Islamiya" yorqin misol bo'ldi. Bularni "siyosiy islom" tipiga kiritib, ularning ishtirokchilarini odatda islomiylar (Islamistlar) deb atashdi.

1980-yillar oxiriga kelib, islomning siyosiy tus olishi, radikal harakteri kuzatilmagan musulmon mamlakatlari deyarli qolmagan edi. Davlat hukumatini tanqid qilish bilan birga, u bilan murosaga kelishishga tayyor, hukumat tizimlarida (parlamentda xatto boshqaruv apparatida) ishtirok yetuvchi mo'tadil, yekstrimistdan tortib, islom niqobi ostida, terror usullarini qo'llovchi turli-tuman islomiy harakatlar mavjud bo'ldi.

Islomiy tashkilotlar qatoriga o'zida tinch va qonuniy ishslash metodlarini qo'llovchi, shu bilan bir qatorda zarur hollarda terrorga murojaat etuvchi, o'z faoliyatini maxfiy saqlovchi strukturalar mavjud yedi. Misol uchun, Misrdagi Al-Jamoat al-Islamiya va Al-Jihad radikal-terror guruhi Misrdagi Musulmon birodarlar tashkilotida ajralib chiqqan tuzulmaviy bo'limlar deb hisoblanar edi. Shuning uchun, islomiy harakatlar osonlikcha qonuniydan noqonuniyga aylanishi, tinchdan qurolli metodlarga o'tishi kuzatilgan.

Bugungi kundagi islom siyosiy harakatlarining asosiy yo'nalishi, bu muxolifatdir. Islomiy muxolifat o'zini "uchinchchi kuch" sifatda gavdalatirib, ular bu so'zning asli ma'nosini, o'zi mustaqil faoliik ko'rsatishi kerak deb tushunishadi.

Aytish joizki, islom harakatlari ham, mafkurada ham, siyosiy amaliyotda jiddiy o'zgarishlarga duch kelgan. Misol uchun, Musulmon birodarlar tashkiloti 1920-30-yillarda oxirida ma'naviy-ma'rifiy harakatidan 1940-50-yillarda harbiylashgan terroristik tashkilotiga aylangan.

Islomiy harakatlar va tashkilotlarning faoliyatları nafaqat mamlakatdagi yoki qo'shni davlatlardagi siyosiy vaziyatlarga balki butun bir mintaqaga o'z ta'sirini o'tkazishi kuzatilmogda. Islomiy harakatlarni musulmon olamidan chetdagi hodisa sifatida qarash mumkin emas. Olimlar islomning musulmon jamiyati zamona viy siyosiy hayotidagi fenomennini tadqiqida, modernizatsiya muammolarni hal yetuvchi xalqning rivojlanishini yangi bosqichini boshlanganligidan dalolat beradi deb ta'kidlaydi[7]. Islomning uyg'onishi xalqaro arenalarda va barcha musulmon mamlakatlarda keng diniy ijtimoiy harakat sifatida davom yetmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimgi, so'nggi o'n yilliklarda kuzatilayotgan Islomni siyosiylashuvi nafaqat globallashuv natijasida, balki davlatlarning ichki omillar ta'sirida ham sodir bo'lmoqda. Ushbu omillar siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatlari bilan bilan bog'liq. Islomning universalligi fenomeni uni ommalashuviga, migratsiya jarayoni yesa uni boshqa mamlakatlarga yeksport qilinishiga asos bo'lmoqda.

XULOSA

Bugungi kunda jahonda ro'y berayotgan voqealar yovuz kuchlar va buzg'unchi mafkuralar umuminsoniy xavfsizlikka, xalqlarning erkin va tinch hayot kechirishlariga tahdid solayotganidan dalolat bermoqda. Davlatning dinka munosabatidagi asosiy xususiyati – dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din birinchi o'rinda ma'naviy-ahloqiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Diniy ekstremizm va murosasizlikka qarshi mafkuraviy kurashning muhim omili sifatida yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish ekanı qayd etilgan.

Dunyoda bo'layotgan voqealar va hodisalardan hamisha ogoh bo'lish, Vatanimizdagi tinch, osoyishta va farovon hayotning qadriga yetish, shu farovon, osuda hayotni yanada mustahkamlash uchun har bir fuqaro o'z hissasini qo'shmag'i, yel-yurt taqdiri, kelajagi uchun daxldorlik tuyg'usini his yetmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Qo'ysinova F.O. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida xalqaro tashkilotlarning roli: //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 12. – С. 42-48.
- <https://religions.uz/news/detail/?id=1293>
- Isaqova Z.R. Sharq falsafiy tafakkuri rivojida tasavvufiy-irfoniy bilimlarning o'rnii va ahamiyati //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 21-26.
- Aminova N. Ijtimoiy taraqqiyotda ma'naviyat va iymon uyg'unligi //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 18. – №. 1. – С. 190-195.
- Tovbin K. M. Antimodernizm: traditsionalizm, fundamentalizm, konservativizm //Antinomii. – 2014. – Т. 14. – №. 1. – С. 28-42.
- Abrahamian YE. Khomeinism: Yessays of the Islamic Republic. London, New York, 1993.;
- Кудряшова Ирина Владимировна Исламская цивилизационная доминанта и современное развитие мусульманских политий // Полит. наука. 2003. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/islamskaya-tsivilizatsionnaya-dominanta-i-sovremennoe-razvitie-muslimanskih-politiy>.